

NAXSHAB-QARSHI SHAHARLARINING 2700 YILLIK TARIXI O'RGANILISHI.

Shamsiyeva Sadoqat Burxon qizi

Shahrisabz pedagogika instituti Tarix kafedrası

Ijtimoiy – gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (Tarix) yo'nalishi

I kurs magistranti.

Annatatsiya. Maqolada sivilizatsiya markazlaridan biri hisoblangan So'g'd vohasining markazi bo'lgan Qarshi tarixini o'rganilishi, uning turli davrlarda siyosiy-ma'muriy jihatdan bo'linishi, shuningdek, Qarshi shahrining 2700 yillik yubileyi nafaqat madaniy, balki ilmiy ahamiyatga egaligi xususida ba'zi mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Naxshab, So'g'd, "Sug'd hukmdorliklari", Nikshapiya (Naxshap) , "Sug'd mulkdorliklari", Istaxriy, Ibn Havqal va Muqaddasiy.

Qashqadaryo vohasini miloddan avvalgi 1-mingyillikda o'zlashtirishni boshlagan bu eroniy xalq bugungi Qarshi o'rnida ilk shaharni qurgan deb taxmin qilinadi. Naxshap (Naxshob, Naqshob – noto'g'ri shakllar), keyinroq esa Nasaf nomi bilan mashhur bo'lgan bu shahar Iskandar Maqduniy davrida ham, arablar kelganda ham yirik shaharchilik markazi bo'lgan[1].

Miloddan avvalgi 545-539 yillarda Kir II sharqiy Eron viloyatlari va Markaziy Osiyodagi Xorazm, So'g'diyona, Marg'iyona viloyatlari va sak qabilalarini o'ziga bo'ysindirdi. Naxshap ham So'g'diyonaning bir qismi sifatida Ahamoniylar hukmdorligi ostiga o'tdi.

Shahar ilk bor miloddan avvalgi 331-yillar, ya'ni aynan Iskandar istilosidan oldingi yillarga oid bir oromiycha hujjatda tilga olinadi. Unda Nikshapiya (Naxshap) va Kisha (Kesh) shaharlari atrofidagi yerlarni chigirtka bosgani bois hosil nobud bo'lgani aytiladi. Shunday qilib, yunonlar bosqini arafasida Qashqadaryo vohasi zaxirasiz qolgan deyish mumkin. Naxshap miloddan avvalgi IV asrda Iskandar Maqduniy tomonidan ishg'ol qilindi. Iskandar, salavkiylar va Yunon-Baqtriya davrida bu yerda yunon madaniyati keng tarqaldi.

Shaharning yana bir nomi Novtak – Navtaka – yangi bino deb talqin qilinadi. Miloddan avvalgi VI asrda shahar kengayib, ichki devor bilan o‘ralgan (hozirgacha saqlangan), maydoni 35 gektarni tashkil etgan. Iskandar Maqduniy fathi davrida shahar vayron qilingan. Shundan keyin uning vohadagi yetakchi shahar sifatidagi maqomi pasayib borgan[2].

Miloddan avvalgi III—II asrlarda shahar tashqi qal’a devori bilan o‘ralgan (maydoni 150 gektar bo‘lgan). II—I asrlarda (hozirgi temir yo‘l stansiyasi hududida) yangi harbiy-siyosiy markaz maqomini olgan Zahhoki Moron qal’asi bunyod etildi. Bu qal’a ham Naxshap nomini olib asta-sekin kengaya bordi (qoldiqlari hozirgi Shulluktepa deb ataladi). Miloddan avvalgi II asrda Naxshap Parfiyona davlati tarkibiga kirdi. Bu davrda shahar ikki qatlamli devor bilan o‘ralgan. Ikkinchi himoya devori 150 gektarga yaqin hududni tashqi xavfdan saqlab turgan. Yerqo‘rg‘on tashqi devori asosi 8 metr qalinlikda bo‘lib, har 60 metrda yarim doirali minoralar bo‘lgan. Devorning tepa qismida devor ichi koridori, o‘q-yoychilar xonalari mavjud bo‘lgan.

Qarshi tarixining boshlanish davri miloddan avvalgi VIII—VII asrlarga borib taqaladi. Ya’ni ushbu davrda hozirgi Qarshi shahridan 5 km shimolda joylashgan Yerqo‘rg‘on xarobalari o‘rnida Nikshapa shahar-qal’asi paydo bo‘lgan. O‘sha paytda ushbu qal’a-shahar butun janubiy So‘g‘dning poytaxti vazifasini bajargan. Shahar-qal’asi ikki qator mustahkam devor bilan o‘ralgan bo‘lgan. Uning birinchi devori miloddan avvalgi VI asrlarga taaluqlidir. Makedoniyalik Aleksandr bosqinidan so‘ng qal’ada ikkinchi devor barpo etilgan. Ushbu devor qal’aning tashqi himoyaviy devori vazifasini bajargan[3].

Qarshi nomining kelib chiqishi to‘grisida turli fikr va taxminlar mavjud.

V.V.Bartold shaharning nomi mo‘g‘ul xoni Kebekxon qurdirgan Qarshi (qadimiy turkiychada saroy ma’nosini anglatgan) bilan bog‘liq deb ta’kidlaydi. Qutadg‘u bilig (Saodatga eltuvchi bilim) dostonida Qarshi atamasi saroy va qarama-qarshi turish ma’nosida qo‘llangan.

Boburnomada ham bu nom mo‘g‘ul tilidan olinganligi ta’kidlangan. Keltirilgan taxminlarda atamaning qarshi – saroy, qasr ma’nolari ko‘proq qo‘llanadi.

VIII asrning boshida Movarounnahrning boshqa shaharlari kabi Naxshap ham fath etildi (710-yil). Shahar esa endi Nasaf deb atala boshladi. Shaharda ilk masjid qurildi. Istaxriy, Ibn Havqal va Muqaddasiy kabi musulmon geograflarining bergan ma'lumotiga ko'ra, Naxshap qalin devor bilan o'ralgan va to'rt darvozaga ega bo'lgan.

Savdo yo'llarining xavfsizligi, tarixda birinchi chek tizimi yo'lga qo'yilishi, islomdan oldingi savdogarlardan olinadigan soliqlarning bekor qilinishi butun xalifalikda bo'lgani kabi Nasafda ham savdo-sotiq va hunarmandchilikning rivojlanishiga olib keldi.

IX asrning boshida Nasaf Somoniylar davlati tarkibiga kirdi.

XI asrda qoraxoniylar qo'lga o'tdi. Mo'g'ullar bosqini arafasida Nasaf Xorazm sultonligi tarkibiga kirar edi. IX—XIII asrlarda Naxshap (Nasaf) ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan ravnaq topdi. X asrda Nasafda o'sha davr musulmon olamida ilmiy kongress – majlisi tadrish o'tkazilgan.

O'rta asrlarda Nasaf orqali Eron va Hindistonni Rossiya va Yevropa davlatlari bilan bog'lagan muhim karvon yo'llari o'tgan, savdo-hunarmandchilik rivojlangan.

Mo'g'ullar davrida Nasaf (XIII-XIV asrlar) 1220-yillarda Nasaf Chingizxon qo'shinlari tarafidan vayron etildi. Aholining ko'pchiligi qirib yuborildi. Masjid va madrasalar vayron etildi. Shundan keyin shaharda hayot deyarli to'xtab qoldi. Undan keyingi davrda (XIV asrda) voha markazi 3-marta hozirgi Qarshi shahrining eski shahar qismi o'rnida qayta tiklandi[4].

XIV asrning boshlariga kelib Nasaf o'zining mavqeini birmuncha tiklay boshladi. 1320-yilda Chig'atoy ulusini qo'lga kiritgan Kebekxon (1318—1326) mo'g'ul elitasi o'troq hayotga o'tishi borasida qat'iy siyosat yuritgan, hatto buni majburiy qilib qo'ygan. U poytaxtni Qashqadaryo vohasiga ko'chirgan, buzilib ketgan Nasafdan 2 farsax (12-14 km) uzoqlikda qasr qurdirib, poytaxtni Qarshi deb atalgan bu qal'aga ko'chirgan hamda uning hayotini ta'minlash uchun zarur bo'lgan bozorlar, karvonsaroylar, tomoshagohlar, yashash kvartallaridan iborat shaharcha qurdirgan. Shahar hududidan topilgan arxeologik yodgorliklar, bino qoldiqlari Qarshida XIV asrning 1-yarmida bir qancha koshinkor imoratlar mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. XIV asrning 2-yarmida shahar qo'rg'oni

atrofi g'isht va paxsa devor bilan o'ralgan, shaharda Odina masjidi qurilgan. Qal'a atrofida 2,5-3 metr chuqurlikda xandaq qazilgan Xandaq ustida 4 ta ko'tarma ko'priklarni bo'lgan. Shahar qo'rg'oni hududi 40 gektarni tashkil etgan. Keyinchalik bu shaharcha kengayib, Movarounnahrning markaziga aylangan. Shahar esa shu saroy nomi bilan Qarshi deb atala boshlagan (turkiy „qarshi“ so'zi forscha „saroy“ so'zining sinonimidir. Bu so'z Qoshg'ariyda uchraydi). Nasaf aholisi sekin-asta Qarshi atrofiga ko'chib o'ta boshladi. Mana shu paytdan boshlab Qarshi Nasafning ikkinchi nomiga aylandi va XIX asrga kelib Nasaf nomini iste'moldan chiqardi[5].

Amir Temur strategik ahamiyatga molik bo'lgan Nasafni himoya devori bilan o'ratdi. Ammo, Amir Temurning vatani bo'lgan Keshning mavqei ko'tarilishi natijasida Nasaf biroz e'tibordan qoldi. Shuning uchun temuriylar davridan biron ko'zga ko'rinarlik yodgorlik qolmagan.

Xulosa. Qarshi tarixi bundan 2700 yil avvalga borib taqaladi. Qarshi yubileyi nafaqat madaniy, balki ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, bu shaharlar haqidagi tarixiy ma'lumotlarni chuqurroq o'rganishga turtki bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 29-sentyabrdagi "Qarshi shahrining 2700-yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida"gi qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 26-iyuldagi "Qarshi shahrining 2700-yilligini nishonlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroridan keyin shaharda keng ko'lamda tayyorgarlik ishlari boshlab yuborildi. Ko'kgumbaz masjidi, tarixiy ko'priklarni va boshqalar me'moriy obidalar ta'mirlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hasanov A. Qashqadaryo vohasi shaharsozligi va me'morchiligi (XVI-XIX asrlar) – Toshkent: Voris, 2019. – B. 21.
2. Sagdullayev A.S. Gau Sug'd – Nautaka-Kesh // San'at. – Toshkent, 2001. – №1. – B. 7.
3. Kamaliddinov Sh.S. «Kitab al-ansab» Abu Sa'da Abulkarima ibn Muhammada as-Sa'mani kak istoricheskiy istochnik po istorii kulturi Sredney Azii. – Tashkent: Fan, 1993. – S. 108.

4. Masson M.YE., Pugachenkova G. A. Shaxrisabz pri Temure i Ulugbeke // Trudi SAGU. Novaya seriya. Gumanitarniye nauki. Arxeologiya Sredney Azii. – Tashkent, 1953. Vip. 49. – S. 22.
5. Lunin B.S i dr. Shaxrisabz 1968 g. – №8. – S. 22.
6. Bertger YE. K. Izvlecheniye iz knigi «Puti i strani». – Tashkent: Izd-vo SAGU, 1957. – S. 19.
7. Pugachenkova G. A. Temuridskoye arxitekturnoye naslediye Shaxrisabza // Shaxrisabz shahrining jahon tarixida tuttan o‘rni. Xalkaro ilmiy konferensiya ma’ruzalari tezislari. Toshkent, 2002. – B. 10.
8. Safarov D.T XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Quyi Qashqadaryodaholisi (tarixiyetnografik ma’lumotlar) // Qadimiy Qarshi O‘rta Osiyo shaharsozligi va madaniyati tarixi. – Qarshi: – Nasaf, 1999. –B. 152. 5
9. Hamidova M. Qashqadaryo hunarmandchiligi tarixi. – Tashkent, 2021, 4-jild, – №7. – B. 32.
10. Grigoryev V.V. Ocherki Shaxrisabzskogo bektva. IVL, 1958. – S. 57.
11. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Tom. 11. – B. 28.
12. Davlatova S. Buxoro amirligida mang‘itlar sulolasi bilan kenagaslar urug‘i o‘rtasidagi ixtiloflar. – Toshkent, 1995. – B. 95.
13. Dresvyanskaya G., Usmanova 3. Iz istorii Kesha. – Tashkent, 1976. – S. 7.
14. Kun A. Ocherki Shaxrisabzkogo // ZRGO. T. VI. – SPb., 1880 g. – S. 224. Q
15. Suxareva O. A. K istorii gorodov. – Tashkent: Izdatelstvo AN Uz.SSR, 1958. – S. 130.
16. Bekchurin Y. Shaxrisabzskiye vladeniya po rasskazam Djurabeka Bababeka // Materiali dlya statistiki Turkestanskogo kraya. Yejegodnik. – Spb. 1873. Vip. II. – S. 85.
17. Поён Равшанов. «Карши тарихи». «Янги аср авлоди», 2006 йил